



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqq boshlagan

№20 (782), 2024-yil 31-oktabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Yubiley

NUROBODDA QUTLUG' SANA SHODIYONALARI

So'nggi yillarda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining yirik bo'linmalari tashkil topganligining 60 yilligi nishonlanib, ana shu davrda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari sarhisob qilinib, turli kasb egalarning yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi jasoratli mehnatlari e'tirof etilmoqda.

25-oktabr kuni Nurobod shahrida Janubiy kon boshqarmasi va "Sobirsoy" geotexnologik konining 60 yilligi munosabati bilan bayram tantanasi va shodiyonasi bo'lib o'tdi. Shahar markazidagi "Nurobod" madaniyat saroyiga ishlab chiqarish ilg'orlari, mehnat faxriylari, jamoatchilik vakillari, mehmonlar to'plandilar. Ayniqsa, Janubiy kon boshqarmasi va "Sobirsoy" geotexnologik koni ishchi-xizmatchilari, muhandis-xodimlarining yuz-ko'zlarida quvonch, kasbidan, ulkan korxonaga rivojiga munosib hissa qo'shayotganligidan faxrlanish tuyg'usi zohir edi.

Shonli sana munosabati bilan tashkil etilgan bayram tantanasi Janubiy kon boshqarmasi va "Sobirsoy" geotexnologik koni jamoalarining oltin yilda sob o'tgan yo'li, uran va oltin konlarining o'zlashtirilishi hamda bugungi kunda kon boshqarmasining kombinatning yirik, ilg'or bo'linmalaridan biriga aylanganligi haqida hikoya qiluvchi videorolik namoyishidan boshlandi.

Tantanalni yig'ilishda Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov har ikkala bo'linma jamoalarini yubiley munosabati bilan qizg'in muborakbod etib, bir guruh ishlab chiqarish ilg'orlariga viloyat hokimligining Tashakkurnomasini topshirdi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov tabrik ma'ruzasida Janubiy kon boshqarmasi va "Sobirsoy" geotexnologik konining tarixi, jamoalar erishayotgan yutuqlarga to'xtalib o'tdi.

Darvoqe, tabrikda ta'kidlanganidek, O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining bayroqdori bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati va "Navoiyuran" davlat korxonasi tomonidan ishlab chi-

qarilayotgan mahsulotlar yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda hayratlanarli darajadagi o'zgarishlar yuz bermoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan keng ko'lami islohotlar kon-metallurgiya sohasini ham yangi yuksalish bosqichiga olib chiqmoqda. Keyingi yetti yilda kombinatda 4 ta yangi gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. Quvonarlisi, investitsion loyihalarni jadallashtirish hisobiga 2026-yilgacha mo'ljallangan dastur muddatidan ikki yil oldin – joriy yilda bajariladi. Bunda shak-shubhasiz, Janubiy kon boshqarmasi jamoasining ham xizmatlari beqiyos. 2002-yilda "Zarmitan" va "Marjonbuloq" oltin konlari, "Marjonbuloq" oltin ajratib olish sexining Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga kiritilishi Janubiy kon boshqarmasi hayotida yangi yuksalish bosqichini boshlab berdi.

Ayniqsa, Zarkent qo'rg'onida kombinat mutaxassislari kuchi bilan o'n bir oyda qurilgan 4-gidrometallurgiya zavodi nafaqat kombinat solnomasi, balki mamlakatimiz kon-metallurgiya sanoati tarixida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Bu zavodni ishga tushirish bilan kombinat mutaxassislari nimalarga qodirigini amalda isbotlashdi. Yangi zavodning foydalanishga topshirishi avvalo, hududga zamonaviy sanoatni olib keldi, ikkinchidan, hudud qiyofasi tubdan o'zgardi, uchinchidan, yoshlar, ayniqsa, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratildi.

2018-yilda "G'ujumsoy" konida zamonaviy yechim va innovatsion yondashuvlarga asoslangan, chuqurligi 500 metr, aylanasini 6 metr bo'lgan yangi shaxta, 2021 yilda ushbu konda maydalash-saralash texnologik tizim, "Zarmi-



tan" konining "Asosiy" stvol maydonida shaxta ko'tarish qurilmasi binosi va stvol kopyori ishga tushirildi. Bularning natijasida ma'dan qazib olish ko'lami kengayib, hajmi oshdi. "Zarmitan" konida 2011 yilda 640 ming tonna ma'dan qazib olingan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1,4 million tonnaga yetdi.

"G'ujumsoy" konida 2011-yilda 46,2 ming tonna ma'dan qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 861,7 ming tonnani tashkil etdi yoki ishlab chiqarish hajmi qariyb 19 baravarga oshdi. "Marjonbuloq" konida ham shunday natijalarni ko'rish mumkin. Xususan, konda 2011-yilda 2,6 million kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 5,3 million kubometrni tashkil etdi. Shunday muvaffaqiyatlar bilan kon boshqarmasi konchilik va metallurgiya sohasida o'zining zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan, salohiyatli kadrlariga ega ilg'or bo'linmalaridan biriga aylandi.

Eng muhimi, bugun olti ming kishilik jamoa hamfikir, hamjihat bo'lib, oldilariga qo'yilgan barcha vazifa va rejalarni ortig'i bilan ado etib kelayotgani tahsinga loyiqdir.

Hozirgi vaqtda "Sobirsoy" geotex-

nologik koni tarkibida 11 ta uchastka faoliyat yuritmoqda. Jizzax viloyatining "Arnasoy" istiqbolli konini o'zlashtirish ishlari boshlandi. Ayni paytda hududda uran zaxirasi kamayib ketganligiga qararasdan "Navoiyuran" korxonasi ishlab chiqarilayotgan uranning 9,2 foizi mazkur kon hisobiga to'g'ri kelayotgani jamoaning professionaligi va mutaxassislarining yetuklik darajasini ko'rsatib turibdi. Bunday yutuqlarda, hech shubhasiz, fidokorona mehnat qilayotgan qariyb 900 nafardan iborat jamoaning xizmati kattadir.

Janubiy kon boshqarmasi jamoasi oldida katta vazifalar turibdi. "Zarmitan" va "G'ujumsoy" konlarida zaxiralarni ochish va o'zlashtirishga qaratilgan muhim ahamiyatga ega loyihalar bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. Bunday loyihalardan biri - qiymati 50 million AQSh dollari bo'lgan "Zarmitan" oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini o'zlashtirish loyihasidir. Chexiya Respublikasining kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilgan uch yillik samarali mehnat mahsuli sifatida O'zbekiston konchilik sanoati tarixida shaxta diametri 6,5 metr va chuqurligi ming metrga yetkazildi. "Skipovoy" shaxta

stvolining yillik unumdorligi 1,4 million tonna ma'danni yer yuzasiga chiqarish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Bugun Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek ulkan korxonaga jamoasining qadami yetgan joy obod bo'lib, gullab-yashnamoqda. Zarkent qo'rg'on, Nurobod shahri, Marjonbuloq shaharchasi buning yaqqol isbotidir. Mazkur aholi istiqomat manzillari zamonaviy qiyofaga ega, havas qilishga arzuqilik, shaharlardan aslo qolishmaydigan obod maskanlarga aylandi va bu har qanday insonning havasini keltirishi tabiiy.

Imkoniyat tug'ilganidan foydalanib, sizlarga yaxshi bir xabarni yetkazib qo'ysam. Joriy yilning iyul oyida kombinat "S&P Global Ratings" va "Fitch Ratings" reyting agentliklari tomonidan "Barqaror" reytingi bilan xalqaro "bb-" kredit reytingi darajasida baholandi. Yaqinda biz Buyuk Britaniyaning London shahrida bo'ldik. London fond birjasiga kombinat tomonidan 1 milliard AQSh dollari miqdorida xalqaro korporativ obligatsiyalar muvaffaqiyatli joylashtirildi. Bu ham katta yutug'imizdir, – dedi pirovardida Q.Sanaqulov.

Yig'ilishda kombinat rahbari tomoni-

dan Janubiy kon boshqarmasida rejalarning bajarilishiga arzuqilik ulush qo'shayotgan ishchi-xizmatchilar va muhandislariga turli darajadagi "Konchilik shuhrati" va "NKMK faxriysi" ko'krak nishonlari topshirildi.

Quvondiq Sanaqulovich Nurobod shahri aholisini qiziqitirgan muhim masala – hududning yaqin kelgusidagi istiqbolli xususida to'xtalib o'tdi. Jumladan, kombinat rahbari Nurobod shahri aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida bu yerdagi ta'mirlash-mexanika sexi bazasida Navoiy mashinasozlik zavodining filialini tashkil etish mo'ljallanayotganligini ta'kidladi. Bunday xabar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan olqishlar bilan qabul qilindi.

Tantanalni yig'ilish "Farhod" va "Nurobod" madaniyat saroylari hamda "Konchi" madaniyat uyi badiiy jamoalarining dilrabo kuy-qo'shiqlari va raqslariga ulanib ketdi. Bayram shodiyonalari shinam bazmgohda, to'kin-sochin dasturxon atrofida davom etdi. Shanba kuni markaziy o'yingohda shahar aholisi uchun katta konsert tashkil etildi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

Mahalliyashtirish

17-18-oktabr kunlari Navoiy shahridagi "Kimyogar" sport majmuasida tog'-kon metallurgiyasi, kimyo sanoati, energetika, qurilish materiallari va elektrotexnika sohaslariga ixtisoslashgan Navoiy viloyati hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tdi.

TARMOQLARARO SANOAT YARMARKASI BO'LIB O'TDI



Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan mahalliyashtirish, import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish yo'nalishida keng ko'lami ishlab olib borildi. Kombinatda mahalliyashtirish dasturi ijrosini ta'minlash, import o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha aniq va asoslangan rejalarda ishlash olib borilmoqda.

Joriy yilda kombinatda 905 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Xususan, yirik investitsiya loyihalari uchun kerakli asbob-uskunalar, dastgohlar va texnikalarning ehtiyot qismlari hamda gidrometallurgiya zavodlarining yirik hajmdagi ma'danlar-

ni maydalash tegirmonlari Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlanmoqda. Og'irligi 900 tonnagacha bo'lgan, yirik o'lchamdagi ma'danni maydalash tegirmonlari hamda masofadan boshqariladigan gidrosiklon qurilmasi kabi yangi mahsulot turlari bunga misol bo'la oladi.

Xususan, 2024-yilning o'tgan davri mobaynida kombinat tarmoqlararo kooperatsiya doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan import o'rini bosuvchi mahsulotlar xarid qilish bo'yicha hamkorlikni amalga oshirdi. Yil yakuniga qadar ushbu hamkorlik doirasida 6,1 trillion so'mlik mahsulot xarid qilish mo'ljallangan.

Davomi 2-betda

Islohot va samara

TRANSPORT SOHASI YANGI BOSQICHDA

Bugun jahonda oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirishi transport vositalaridan unumli foydalanishi va ularni doimiy yangilab borishiga bog'liq. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida keyingi yillarda sohaga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi natijasida korxonaga jahon oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalari orasida yuqori o'rinlarni zabt etmoqda. Kombinat ma'dan qazib olishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan yagona tizimni mujassam etgan sanoat klasteridir. Bu, yerosti boyliklarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratmoqda.

Hozirgi kunda transport sohasida 10 mingga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilayapti. 4 mingdan ziyod turli ruzumdagi avtotransport vositalari va mexanizmlar ishlab chiqarish rejalarni bajarishga safarbar etilgan. Kombinatomizda temir yo'l transportidan tashqari 2 ta Avtomobil transporti boshqarmasi va 17 ta avtokorxonaga va avtotransport ta'mirlash sexi faoliyat olib borayapti. 454 ta og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargichlar, 820 ta yo'l-qurilish mashinalari, 544 ta maxsus avtotransport vositalari, 498 ta avtobus va 346 ta yengil xizmat avtomobillari mavjud. Transport sohasi fidoiyalari joriy yilning o'tgan to'qqiz oyida 210 million kubometrqa yaqin tog' jinslarini tashib berib, kombinatimizning iqtisodiy ravnaqiga munosib hissa qo'shdilar. Bu boradagi reja 105 foizga bajarildi.

YANGILANISH DASTURI – AMALDA

2024-yil boshidan buyon og'ir yuk tashuvchi va tog'-kon texnikalari tarkibi muntazam yangilanib borilayapti. Yuk ko'tarish quvvati 220 tonna bo'lgan 15 ta "CAT" va yurtimizga birinchi marta yuk ko'tarish imkoniyati 254 tonna bo'lgan "Komatsu" rusumli 4 ta avtoag'dargichlar keltirildi. 2024 yil oxirigacha 220 tonna yuk ko'tarish imkoniyatiga ega 13 ta "CAT" rusumli hamda 254 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega avtoag'dargichlardan 6 ta xarid qilish rejalashtirilgan.

Joriy yilda zavod va konlar, ayniqsa avtomobil transporti xo'jaliklarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlari barqarorligini ta'minlash va yangi loyihalarni amalga oshirish maqsadida investitsion loyihalar doi-

rasida yuk ko'tarish quvvati 55 tonnadan 225 tonnagacha bo'lgan avtoag'dargichlardan 100 taga yaqin, avtogreyder, frontal yuklagich, g'ildirakli va janjirli buldozer kabi yo'l-qurilish mashinalaridan 40 taga yaqin, ixtisoslashtirilgan transport vositalaridan 30 ta xarid qilish rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy, yuqori yuk ko'tarish quvvatiga ega avtoag'dargichlardan foydalanish ish samaradorligini oshirish bilan birga haydovchilarga qulay ish sharoitini yaratadi. Jumladan, yuk ko'tarish quvvati 220 tonna bo'lgan "CAT" va "Komatsu" rusumli avtoag'dargichlar zamonaviy bort kompyuterlari bilan jihozlangan hamda bu avtoag'dargichlardagi maxsus moslama ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar haqida alohida belgilangan kodlar orqali tezkor ma'lumot taqdim etadi. Bunday ulkan va zamonaviy transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlari Avtomobil transporti boshqarmalarida to'laqonli amalga oshirilmoqda.

Og'ir yuk tashuvchi tog'-kon texnikalarini texnik soz holatda saqlashda ularda ishlatiladigan yoqilg'i-moylash mahsulotlarining sifatli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoqilg'i-moylash mahsulotlarining sifatini nazorat qilish kabi vazifani Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalari tasarrufidagi Avtomobil transporti boshqarmalarida mavjud Yoqilg'i-moylash mahsulotlari laboratoriyalari munosib tarzda bajarib kelmoqda.

Davomi 3-betda

Xabar

21-oktabr – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to'lishi munosabati bilan butun respublikamizda bo'lgani singari viloyatimizda, jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etildi.

TIL BOR – MILLAT YASHAYDI!

O'zbek tili bayrami kuni sharafiga Navoiy shahridagi Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida viloyat faollari, yozuvchi va shoirlar, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirokida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish tantanalari marosimi o'tkazildi. Tadbir chinakam o'zbek tiliga hurmat, "Davlat tili to'g'risida"gi qonunni so'zsiz bajarishga hamda har birimiz mas'ul ekanligimizning namoyishiga aylandi. Zero, tilga e'tibor – elga e'tibor, deb bejizga aytilmagan.

Ona tili xalqimizning tarixi, o'tmishi, turmush tarzi, millatning o'zligini o'zida mujassam etgan. Shunday ekan, tilimizga hurmat va ehtirom ko'rsatish uchun bayram kunini kutib o'tirish kerak emas. Aksincha, har daqiqada ona tilimizning saqqallanishi, sof o'zbek tilining avlodlarimizgacha yetib borishiga o'z hissamizni qo'shishimiz ham qarar, ham farzdir. Buyuk tariximiz va ajdodlarimizning merosi ham aynan ona tilimiz orqali bizgacha yetib kelganini aslo unutmashimiz dardkor.

Tadbir yakunida tilimizni ulug'lovchi she'rlar o'qildi.

Azamat ZARIPOV.

■ Bugunning gapi

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar inson qadri, odamlarni rozi qilish, yurtdoshlarimizga farovon hayot yaratishga qaratilgan. Buning natijasida xalq bilan muloqot qilish, aholi murojaatlari va muammolariga yechim topish barcha darajadagi davlat idoralarning birinchi darajali vazifasiga aylandi. Xalq davlat idoralarga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda.

HAR BIR MUROJAAT ORTIDA
INSON TAQDIRI BOR

Bu borada Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham zimli ishlar olib borilayotir. Ta'kidlash joiz, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha o'ziga xos tizim yaratilib, muammolarni joyiga borib o'rganish, har bir murojaatni o'z vaqtida ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratib kelayapmiz. Kombinat va uning bo'linmalari rahbarlarining jismoniy va yuridik shaxslar qabulini tashkil etish samarali yo'lga qo'yilgan. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari doimiy tahlil etilib, muhokama qilib borilmoqda. Bu o'z navbatida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, ifratuzlimani yaxshilash barobarida aholi turmush farovonligini yanada oshirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, 2024-yilning 9 oyida kombinatga yozma, og'zaki va elektron ko'rinishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarini orqali to'g'ridan-to'g'ri yo'llangan 3347 ta murojaat kelib tushgan. Agarda, bu raqamni 2023-yilning 9 oyilgiga taqqoslaydigan bo'lsak, murojaatlar o'tgan yilga nisbatan 22 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning manfaati yotadi. Odamlar amalga oshirilayotgan islohotlar natijasini hayotida erta yoki indinga emas, bugun ko'rishni istaydi. Xalq bilan bevosita muloqot davomida ularning dardu-tashvishlari, qanday ijtimoiy, ma'naviy-maishiy yordamga muhtojligini o'rganish borasida hududlardagi Ixtisoslashtirilgan prokuraturalar va NKMK IIB bilan hamkorlikda Markaziy, Shimoliy va Janubiy kon boshqarmalarida ham sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda. Fuqarolarimizning amin-erkin hayot kechirishi, ishlashi, o'qishi, tinch-osoyishtaligi ko'p jihatdan ularning muammolari ijobiy hal etilishiga bog'liq. Shu boisdan murojaatlarda ko'tarilgan masalalarning yechimi borasida hamkorlik qilinmoqda.

Kombinat rahbariyatining o'tgan to'qqiz oyda Markaziy, Shimoliy va Janubiy kon boshqarmalarida jismoniy va yuridik shaxslar vakillari bilan sayyor qabullarida 50 nafar fuqaro qa-

bul qililib, ularning murojaatlari yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Murojaatlarning 392 tasini og'zaki, 677 tasini yozma va 2278 tasini elektron murojaatlar tashkil etadi. Yozma murojaatlarning 129 tasi ijobiy hal qililib, 518 tasi bo'yicha zaruriy tushuntirishlar berildi hamda 30 tasi ayni paytda o'rganish jarayonida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali 2166 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 1628 tasi qanoatlantirilib, 230 tasiga tushuntirish berildi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, fuqarolar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Internet tarmog'idagi Virtual qabulxonasi hamda Telegramm messenger-dagi maxsus bot orqali ham o'z murojaatlarini onlayn rejimda yo'llashlari mumkin. Har kuni mazkur interaktiv platformalar



orqali kelib tushgan murojaatlar o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, murojaat egalari huquqiy tushuntirishlar berilmoqda.

Davr talabidan kelib chiqib, murojaatlar bilan ishlashni yanada yaxshilash, imkon qadar fuqarolarning muammolarini hal etishga ko'maklashish asosiy vazifamiz bo'lib qolaveradi. Zero, bu fuqarolarning farovon hayot kechirishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shavqiddin IDIYEV,
"NKMK" AJ Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i.

■ Mahalliyashtirish

TARMOQLARARO SANOAT
YARMARKASI BO'LIB O'TDI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Yarmarkada respublikaning turli hududlaridan sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 200 dan ziyod korxonalar o'zlarining import o'rini bosuvchi 3500 ga yaqin mahsulotlari, sanoat kooperatsiyasi orqali mahalliyashtirishga taklif qilinayotgan turli jihoz va uskunalar namunalarini hamda istiqbolli loyihalari bilan qatnashdilar.

Korxonamizga 2007-yilda asos solingan bo'lib, jamoamizda hozirgi kunda 550 nafar kishi mehnat qilmoqda, – deydi "Gidro stanko servis" ishlab chiqarish tijorat korxonasi direktorining ishlab chiqarish bo'yicha muovini Baxtiyor Rajabov. – Sanoat korxonalarini uchun kon-shaxta mexanizmlari, yuk ko'tarish transport vositalari mexanizmlari, burg'ilash mashinalari uchun turli detallar kabi o'nlab turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaramiz. Bizning asosiy xaridorimiz bu Navoiy kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi. Joriy yilda "Cooperation.uz" portali orqali ushbu gigant korxonaga 300 milliard so'mlik mahsulotni sotishga muvaffaq bo'ldik.

Yarmarkaning ochilish tantanalarida mamlakatimiz Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda yangi turdagi mahsulotlarni mahalliyashtirish va korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, import hajmini optimallashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlarga Navoiy viloyati misolida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanishicha, viloyatda sanoatni jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda importni optimallashtirish borasida bir qator ijobiy va samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda viloyatda 2800 dan ortiq sanoat korxonalar va 240 ga yaqin xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 84,4 trillion so'mni, 2023-yilda esa 101,6 trillion so'mni tashkil etib, 106,7 foizga o'sishi ta'minlandi. Joriy yil yakuni



bilan ishlab chiqarish hajmi 117,1 trillion so'mga yetkazilishi kutilmoqda. Shuningdek, hududiy sanoat korxonalarining joriy yildagi o'sish sur'ati 122 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, viloyatdagi sanoat korxonalarining o'zaro kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha olib borgan sa'y-harakatlari hamda "shatakka olish" mexanizmi bo'yicha tarmoq korxonalar tomonidan kichik korxonalar qo'llab-quvvatlanayotganligi hisobiga korxonalar o'rtasida qo'shimcha mahsulotlar savdosi amalga oshirildi.

Ikki kun davom etgan mazkur yarmarkada sanoat mahsulotlari ko'rgazmalari, elektron kooperatsiya birjasi portali faoliyati, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb qilish, investitsion imkoniyatlar, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda tarmoq va hududlarda sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan taqdimotlar hamda uchrashuvlar o'tkazildi. Muhimi, yarmarkada sanoat tarmoqlari, kichik biznes subyektlari ishlab chiqarayotgan mahalliy mahsulotlarni xarid qilish hamda butlovchi qismlar, materiallar va xomashyolarni yetkazib berish yuzasidan shartnomalar imzolandi.

Azamat ZARIPOV.

■ 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni

QONUN IJROSI BILAN KUCHLI

"O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar".

Abdulla QODIRIY.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng hech bir istisnosiz ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo'l ochildi. Davlatimizning Asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyamizda hamda "Davlat tili to'g'risida"gi qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda o'zbek tilining huquqiy maqomi, istiqboli aniq ko'rsatib berilgan. Davlat tilining jadal joriy qilinishidagi asosiy vazifalardan biri mamlakatimizda ish yuritish tizimini to'lg'ig'icha o'zbek tiliga o'tkazishdan iborat. Bunda ish yuritish uchun turli sohalar bo'yicha qo'llanmalar yaratish va ko'p nusxalarda nashr qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha qonuniyatlarini hamda qoidalarni

ma'lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, xodim, umuman olganda faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalari yuzasidan malakaga ega bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Markaziy kon boshqarmasi jamoasi uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti vakillari tomonidan Markaziy kon boshqarmasining 2- va 7-gidrometallurgiya zavodlari hamda "Muruntov" konida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" va "Reklama to'g'risida"gi qonunlarining ijrosi o'rganildi. O'rganish jarayonida MKB bo'linmalarida kirish-chiqish xatlatlari, me'yoriy hujjatlar, targ'ibot-tashviqot va bino peshtoqlaridagi yozuvlar ko'rib chiqildi. Jarayon yakuni bo'yicha mas'ul mutaxassislariga kelgusida inobatga olinishi zarur bo'lgan tavsiyalar berildi.

Zero, qonun ijrosi bilan kuchli. Tili-mizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqei yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi.

Aziza IRISOVA.

MILLIY O'ZLIGIMIZ TIMSOLI

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to'lishi munosabati bilan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va uning barcha tarkibiy bo'linmalarida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy kechalar, badiiy-ijodiy uchrashuvlar o'tkazildi. Sana munosabati bilan Navoiy shahridagi "NKMK tarixi" muzeyida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda "Qizilqum" kon boshqarmasi, Navoiy mashinasozlik zavodi ishchi-xodimlari va O'quv markazi tinglovchilari ishtirok etdilar. "Qizilqum" kon boshqarmasi va "Farhod" madaniyat saroyining ma'naviyat yo'nalishi bo'yicha mas'ul xodimlari Nilufar Djavberdiyeva hamda Zarnigor Fazliddinova ona tili bebaho xazina, uni avaylab-asrash va e'zozlash barchamizning farzandlik burchimiz ekanligini qayd etib o'tishdi.

Tadbirida ma'ruzachilar tomonidan Vatanimizda o'zbek tilining davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonun belgilab qo'yilganiga to'g'risida fikrlar bildirildi.

Yurtimizda 21-oktabr xalqona tarzda, umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Bu, ona tilimizni qay darajada ardoqlashimiz va hurmat qilishimizni bildiradi. Mazkur sana butun xalqimiz yakdli ekanligining ifodasidir. Buyuk ma'rifiyatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Hifzi lison" maqolasida kuy-unchaklik bilan: "Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmaktir. Hayot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir

tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmaktadurmiz... Yo-hu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketdukl", – deya yozgandi. O'tgan asr boshlarida ma'rifiyatparvar jadid bobolarimiz xalqimizni mustamlaka zulmidan xalos etish yo'lida qanchadan-qancha ulkan ishlarni amalga oshirgan edilar. Ana shunday mushtarak maqsadlar, umummilliy birlik bugungi kunda biz uchun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda, –deydi "NKMK tarixi" muzeyi mudiri Dilrabo Rahmatova.

Targ'ibot tadbirida tilimizga hurmat va ehtirom ko'rsatish zarurligi, bu hol nafaqat bayram kunlari, aksincha har kuni va hamisha bo'lishi kerakligi xususida qimmatli fikrlar bildirildi.

Tadbir davomida turli millat vakillari tomonidan o'qilgan, o'zbek tilining jozibasini ko'rsatib beruvchi she'rlar barchaga manzur bo'ldi.

Dildora KARIMOVA.

■ Xavfsizlik nazorati

XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH YO'LIDA

Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi zimmasiga "Navoiy KMK" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DMLari bo'linmalari xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlarni sanoat, radiatsiya xavfsizligi va geologiya sohalari o'ld qonun, qonunosti hujjatlari va boshqa qoidalarga rioya qilgan holda bexatar olib borilishini nazorat qilishdek vazifa yuklangan.

Inspeksiya 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining sobiq "Gosgortexnadzor" davlat qo'mitasi tarkibida tashkil etilgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi "Er qo'ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalari davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi negizida qayta tashkil etilgan.

Qizilqum kon-texnika inspeksiya boshlig'i Alisher Abdusattorov jamoa faoliyati haqida gapirib berdi.

– Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining 5 ta viloyati hududida joylashgan "Navoiy KMK" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM tasarrufidagi 252 ta xavfli ishlab chiqarish obyektlarida 70 ming nafardan ziyod ishchi-xodimlar mehnat qilishadi. Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi bu obyektlarda foydalanilayotgan minglab texnik qurollarni ishlatish, kon ishlari, neftkimyo va metallurgiya sohalari sanoat, radiatsiya xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirmoqda. Nazorat ostidagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligiga oid qonun va qonunosti hujjatlari talablariga rioya qilinayotganligini o'rganish maqsadida inspeksiya xodimlari tomondan 2024-yilning to'qqiz oyi davomida 238 ta tekshirishlar o'tkazilgan bo'lib, unda 1778 ta qoidabuzarliklar aniqlangan. Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha 238 ta yozma ko'rsatmalar va taqdimnomalar berilgan hamda sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha 127 ta rahbar va muhandis- texnik xodimlarga ma'muriy jarimalar qo'llanildi. Sanoat xavfsizligi, konchilik ishlarni bexatar



olib borish talabari buzilgan, 11 ta obyektida ishlar to'xtatildi. Kamchiliklarni bartaraf etish talabi qo'yildi. Shu bilan birga texnik qarorlar va boshqa shunga o'xshash 433 ta hujjatlar o'rganib chiqildi. 15 ming 294 nafar ishchi va muhandis-texnik xodimlarning sanoat xavfsizligiga oid qonun va qoidalar bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida joriy yilning o'tgan davrida 12 ta turli darajadagi baxtsiz hodisa sodir bo'lgan. Baxtsiz hodisalar maxsus tekshirish komissiyalari tomonidan o'rnatilgan tartibda o'rganib chiqilgan. Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi xodimlari o'z vakolatlari doirasida komissiyalarni boshqarmoqdalar.

Kon-texnika inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-feraldagi 86-sonli "Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risida yagona nizom"ga asosan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan texnik qurollarni montaj qilish, ta'mirlash, ekspluatatsiya qilish, ishga tushirish, rostdlash

va shunga o'xshash boshqa faoliyat turlari bo'yicha ruxsat berish xususiyatiga ega 130 dan ziyod hujjatlar va litsenziyalar olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi xodimlarining nazorat profilaktika ishlarni amalga oshirishidan ko'zlangan maqsad, xavfli ishlab chiqarish

obyektlarida avariya, noxush hodisalar va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish, ishchi xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishlarda zamonaviy ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha takliflar berish va ishlab chiqarish jarayonlarining qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilishdan iborat. Faoliyatimiz ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish asosida davlat rejalarining bajarilishini ta'minlashga hissa qo'shishga qaratilgan.

Bu ishlarni amalga oshirishda ahil jamoada ko'p yillardan beri ishlab kelayotgan J.Urakov, S.Chiniqulov, T.Namozov, A.Abdushukurov, M.Boboqulov kabi tajribali xodimlar, shuningdek, davlat inspektorlari B.Usmonov, A.Badridinov, M.Ahmedov, U.Razzoqov, O.Shokirov va S.Toshpo'latovlarning hisssasi kattadir. Ularning fi-dokorona mehnatlari kombinat rahbariyati tomonidan munosib taqdirlanib kelinmoqda.

A.AXMEDOVA
suhbatlashdi.

■ Islohot va samara

TRANSPORT SOHASI YANGI BOSQICHDA

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

TARKIBIY O'ZGARISH VA YANGILANISHLAR

Kombinatimizda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi barobarida transport vositalari tomonidan tashiladigan tog' jinslari miqdori oshmoqda. Bunday ulkan tarkibdagi soha mehnat jamoasi bilan ishlash, ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish o'z navbatida transport sohasida strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. "NKMK" AJ boshqarmasi Transport departamenti tarkibida uchta bo'lim va boshqarma boshlig'iga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi xizmatni o'z ichiga olgan Transport boshqarmasi tashkil etildi. Transport boshqarmasi tarkibiga Temir yo'l transporti bo'limi kiritilishi bilan birga yangi, Avtotransport vositalarini ta'mirlashni muvofiqlashtirish bo'limi, Avtotransport vositalaridan foydalanish va yoqilg'i-moylash materiallarini muvofiqlashtirish bo'limi va Yo'l harakati xavfsizligini muvofiqlashtirish xizmati tashkil etildi.

Tog' jinslarini tashish va shunga bog'liq texnologik jarayonlarni o'z vaqtida rejaga muvofiq bajarishda transport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va tog'-kon mexanizmlarining texnik soz holatda bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Ichki yonuv dvigateli transport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va tog'-kon mexanizmlarida eng zarur va qimmatbaho agregatdir. Ichki yonuv dvigatellarini ta'mirlash ko'p vaqt va mablag' talab etadi. Shuning uchun ichki yonuv dvigatellarini soz holatda saqlash, dvigatel tasodifiy ishdan chiqishining oldini olish va xizmat muddatini uzaytirish maqsadida zaruriy texnik xizmat ko'rsatish va rejali-profilaktik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish, kapital ta'mirlash va ta'mirdan so'ng sinov o'tkazish kabi kompleks ishlar amalga oshiriladi.

Bunday katta hajmli ishlarni bajarish hamda yildan yilga ichki yonuv dvigatellarida harakatlanadigan tog'-kon texnikalarining oshirishini oshirish kombinat rahbariyati oldiga yangi strukturaviy birligni, ya'ni ichki yonuv dvigatellarini ta'mirlash sexini tashkil etish vazifasini qo'ygan edi. Zarafshon shahrida tashkil etilgan ushbu sexda Markaziy kon boshqarmasi va Shimoliy kon boshqarmasi ishlab chiqarish obektlarida foydalanilayot-

gan transport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va tog'-kon mexanizmlarining ichki yonuv dvigatellarini kapital ta'mirlash va rejali-profilaktik ta'mirlash ishlarini amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

ELEKTR ENERGIYASIDA HARAKATLANADIGAN TRANSPORT

Bugungi kunda havoning ifloslanishi, atrof-muhit ekologik holatining kundan-kunga yomonlashishi va bunga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish nafaqat yurtimizda, balki dunyo bo'ylab dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yurtimizda transport vositalarining atrof-muhitga yetkazadigan zararini kamaytirish maqsadida hukumat tomonidan elektr energiyasida harakatlanadigan transport vositalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Kombinatimiz transport parkida mavjud eski, neftdan olinadigan yoqilg'i turida harakatlanadigan avtomobillar o'rni shu yilda yangi zamonaviy gibridd avtomobillar va elektromobillardan 40 dona, 2025-yilda 20 dona, shuningdek, elektromobillarni zaryadlash qurollaridan 5 dona xarid qilish vazifasi belgilanib olindi.

Shu bilan birga, 2024-yil oxirigacha yuqorida ko'rsatib o'tilgan yuk ko'tarish quvvati 254 tonna bo'lgan "Komatsu" rusumli yuk tashuvchi avtoag'dargichlardan bir nechtasini sinov tajriba tariqasida qo'shimcha elektr qurollari bilan jihozlangan holda "Muruntov" konida dizel-trolleyvoz sifatida foydalanish yo'lga qo'yiladi. Bu, konda yuk tashish samaradorligini anchaga oshirish bilan birgalikda havoga ajralib chiqadigan zararli gazlar miqdorini kamaytiradi.

RAQAMLASHTIRISH – RIVOJLANISH GAROVI

XXI – axborot asrida, hech bir soha rivojini axborot texnologiyalari va raqamlashtirish sohasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyat tizimida ham bu yo'nalishda katta ishlar olib borilmoqda. Avtomobil transportida ish unumdorligini oshirishda yoqilg'i sarfini kamaytirish, ortiqcha xarajatlarning oldini olish, avtotransport vositalarini nazorat qilish, yengil xizmat avtotransport vositalaridan unumli foydalanishni tashkil etish muhim

sanaladi. Shu maqsadda kombinatning barcha avtotransport bo'linmalarida "Auto Call-Center", "Avtomobil nazorati", "Videoekran" va "Avtobuyurtma" kabi elektron tizimlar tashkil etilgan bo'lib, mazkur tizimlar o'z samarasini bermoqda. Bundan tashqari, "1S:TOIR" (1S:Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash) dasturiy platformasida axborot tizimini ishga tushirish loyihasi amalga oshirilmog'na. "1S:TOIR" dasturiy platformasi avtotransport vositalari va tog'-kon mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini rejalashtirish, omborxonalarda mavjud ehtiyot qismlar, sarf materiallari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari hisobini yuritish imkonini beradi. Bu orqali texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlari o'z vaqtida, sifatli amalga oshiriladi hamda yoqilg'i-moylash mahsulotlaridan oqilona foydalaniladi.

TEJAMKORLIK – YARIM BOYLIK

Xalqimizda "Tejamkorlik-yarim boylik" degan



naql bor. Bu, har bir narsada me'yorni bilishdir. Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni mahalliy lashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmog'na. Jumladan, mahalliy ishlab chiqarish subyektlari bilan birga import o'rini bosuvchi mahsulotlar parametrlarini va o'zlashtiriladigan mahsulotlar sifatini talab darajasigacha yetkazish, konstruktorlik va texnologik ishlarni kuzatib borishda ko'maklashish bo'yicha "Gidrostankoservis", "Navoiypromlitmas", "Vodiy energomash mexanika", "SDK group", "Gauch", "Jizzax akkumulyator zavodi", "Elmash", "Drillflot Asia", "O'zelektroapparat", "Carbon - polymer", "Stalmet group service" kabi tadbirkorlik hamda ishlab chiqarish subyektlari bilan yaqin hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilda ishlab chiqarish tannaxirini kamaytirish va yoqilg'i moylash materiallaridan oqilona foydalanish maqsadida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, jami 8 ming 127 tonna

dizel yoqilg'isi hamda 68 tonna avtobenzin iqtisod qilinishi ko'zda tutilgan. Avtoshina va yoqilg'i moylash mahsulotlaridan qanchalik darajada oqilona foydalanilayotganini tahlil qilish uchun sarf me'yoriy ko'rsatkichlar zarur. Ya'ni, yoqilg'i-moylash mahsulotlarining har bir avtotransport vositalari va tog'-kon mexanizmlari kesimida me'yoriy sarf miqdori, avtomobil shinalarini ham ishlatilish me'yori ishlab chiqilishi talab etiladi. Jamiyat tizimida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi qoshidagi "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda kombinat tizimida avtotransport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va tog'-kon mexanizmlarida yoqilg'i-moylash mahsulotlari sarfi bo'yicha nizom, "Avtomobil transportida standartlar" korxonasi bilan hamkorlikda bizda obyektlarda ishlayotgan avtotransport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va mexanizmlarda foydalaniladigan avtomobil shinalari va katta o'lchamli shinalarning ekspluatatsion harakatlanish masofasi bo'yicha me'yor amal qilinishi majburiy bo'lgan

HARAKAT XAVFSIZLIGI – ENG MUHIM MASALA

Kombinatning tarkibiy bo'linmalari tasarrufidagi barcha ochiq va yopiq usulda o'zlashtirilgan foydali qazilma konlarida yengil va og'ir yuk avtomobillar uchun yo'l harakati hamda texnika xavfsizligining ichki tartibi va qoidalarini takomillashtirish, shuningdek, ishchi-xodimlar malakasini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kombinatimiz rahbariyati tomonidan mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi sharoitlarini takomillashtirish va ishlab chiqarishda jarohatlanishlarning oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Unga ko'ra, qizil rangga bo'yalgan, avtomobil kuzovida "NKMK" aksiyadorlik jamiyatini aks ettiruvchi emblema va bayroqlar bilan jihozlangan maxsus yengil transport vositalari - pikaplar birkirildi. Ochiq usulda o'zlashtirilgan foydali qazilma konlarida foydalanishga birkirtilgan maxsus transportlar nur qaytaruvchi maxsus elementli tasmlar bilan ta'minlandi. Yo'lovchi tashish avtobuslari, servis va ta'mirlash xizmatini ko'rsatadigan yordamchi avtotransportlardan tashqari barcha transport vositalari konlar hududida harakatlanishi taqiqlandi. Kon texnologik yo'lardagi nur qaytaruvchi yo'l belgilari yangilanib, zarur bo'lgan texnologik yo'l hududlariga qo'shimcha o'rnatildi. Konlarda foydalanib kelinayotgan avtotransport vositalari videokuzatuv moslamalari bilan jihozlanmoqda.

XULOSA QILGANDA...

Kombinat avtomobil transporti xodimlari yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda faollik ko'rsatib, o'zlarining bilim va iqtidori, halol va samarali mehnatlari bilan jona-jon Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Bugun Qizilqum sahrosi bag'rida, Nurota tog' tizimlari atrofida yangi konlar ochilib, ularda zamonaviy transport vositalari harakatlanayapti. Yo'lovchilar manfaatini ko'zlab olib borilayotgan o'zgarishlar ularning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilmoqda. Beminnat xizmatlari bilan kombinatimiz rivojiga munosib hissa qo'shayotgan soha xodimlari bundan keyin ham bor imkoniyatlari, kuch-g'ayrati, bilim va tajribalarini oldilarida turgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yo'lida safarbar etadilar.

Rustam ERGASHEV,
"NKMK" AJ Transport bo'yicha direktor.



■ Oramizdagi odamlar

YO'LLARDA O'TAYOTGAN UMR

Inson ba'zida ortga boqib, o'tgan umr yo'llarini sarhisob qilgisi keladi. Hayotining qaysidir bekatini unga quvonch bag'ishlasa, yana qaysidir bekatini tashvish, uchinchi bir umrga tatigulik saboq beradi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Zarafshon qurilish boshqarmasi 4-sonli avtokorxonada haydovchisi G'ulom aka Sanaqulov bilan kechgan suhbatimiz umr mazmunini, kasb tanlash, uning mas'uliyati va mashaqqati, yo'llarda o'tgan vaqt to'g'risida bo'ldi.

- Har bir inson shunday yashashi kerakki, odamlar ortig'inda faqat yaxshi ishlarning, samimiy xislatlarning bilan eslashsin. Tajribam bilan kimgadir yordamim tegsa, bu men uchun katta baxt. Shunda qilyotgan ishimdan zavqlanaman", - deydi G'ulom aka. - Har doim zimnamda katta mas'uliyat borligini his etib ishlayman. Yo'lda har qanday vaziyat bo'lishi mumkin. Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan bunyod etilayotgan qurilish obyektlarida men olib boradigan yuklarni, uyda esa sog'-salomat kirib borishimni kutayotgan oilam borligi uchun ham hushyorlikni yo'qotmayman.

G'ulom akaning mehnat daftarchasida avtomobil haydovchisi degan yozuvigina bor. U 1986-yilda Zarafshon qurilish boshqarmasi Mexanizatsiyalashtirilgan ishlar boshqarmasida avtomobil haydovchisi sifatida ishga qabul qilingan. Bugungi kunga qadar, 4-sonli avtobazada samarali mehnat qilib kelayotgan qahramonimiz yuqori malakali, mohir haydovchi hisoblanadi.

- G'ulom Musayevich qurilish maydonlariga zarur bo'lgan qurilish mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlab, kunlik ish hajmini ortig'i bilan bajarib kelmog'na, - deydi 3-kolonna boshlig'i Avaz Nazarov. - O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi tufayli har qanday murakkab vazifani muvaffaqiyatli yechishga qodir. Ish jarayonida yuzaga kelgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'radi.

Kasbi hayotining mazmuniga aylangan G'ulom aka boshqa kasbda o'zini tasavvur qila olmaydi. U ko'p yillik mehnat faoliyati davomida 2-gidrometallurgiya zavodini rekonstruksiya qilish, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun "Chiqindilarni yig'ish va saqlash" havzasi qurilishi, Chimyon-Chorvoq kurort zonasida joylashgan 120 kishiga mo'ljallangan "Gornyak" pansionati qurilishi, Zarmitan va Marjonbuloq oltin konlari obyektlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, Jizzax viloyati Zomin tumanida "NKMK" sanatoriyasi qurilishi, "Amudaryo-Za-



rafshon" nasos stansiyalari suv quvurining 3-yo'nalishini qurish, "Muruntov" konini o'zlashtirishning 5-navbatini qurilish ishlarida bevosita ishtirok etib kelmog'na.

G'ulom aka Sanaqulovning ko'p yillik halol va fidokorona mehnatlari munosib baholanib, 2014-yilda "NKMK faxriysi" unvoni, 2017-yilda uchinchi darajali, 2024-yilda ikkinchi darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Tajribali haydovchi pensiya yoshiga

yetib qolgan bo'lsada, hamon yoshlarga xos shijoat bilan MAN TGS rusumdagi avtomobilini mohirlik bilan boshqaryapti.

"Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan qurilishi jadallik bilan olib borilayotgan barcha qurilish obyektlariga zarur bo'lgan temir-beton, qurilish mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib berish asosiy vazifamizdir", - deydi qat'iyat bilan G'ulom aka. - Bugungi kunda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati investitsiya das-

turiga kiritilgan qurilish obyektlarining o'z vaqtida foydalanishga topshirilishi, ulkan korxonaning ishlab-chiqarish rejasini bajarilishiga hissa qo'shib kelayotganidan xursandman.

O'z ishini pastu balandini yaxshi egallagan G'ulom aka Sanaqulov mehnat faoliyati davomida kimgadir shogird, yana kimgadir ustoz bo'lib, halol mehnat qilib kelayotgani tufayli ham o'zini hamisha baxtli his etsa ajabmas.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Xushxabar

JANGOVAR SHAYLIK, BILIM VA KO'NIKMALAR SINOV

Yaqinda Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan harbiy qism bazasida Respublika Idoralararo komissiyasining ish rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi tashabbusi bilan 15 ta turli vazirlik, tashkilot hamda idoralarning o'ta muhim va toifalangan obyektlarini qo'riqlaydigan Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari xodimlari o'rnatida musobaqa o'tkazildi. Respublika miqyosida bo'lib o'tgan mazkur musobaqada "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "Qizilqum" kon boshqarmasidan Ahror Umirzov, Mirsohib Mahmudov, Navro'zbek Jumana-zarov, "Auminzo-Amantoy" konidan Muzaffar Cho'liyev, Markaziy kon boshqarmasidan Akmal Otamurodov hamda Navoiy mashinasozlik zavodidan Feruz Norqulov kabi Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash o'tryadi nazoratchilaridan iborat jamoasi faxrli ikkinchi o'rinni egalladi.

Har tomonlama yetuk, mustahkam irodali, jismoniy chiniquqan qo'riqlash xizmati xodimlarini tayyorlashga qaratilgan bunday musobaqalarning muntazam o'tkazilishi ularning jismoniy va jangovar shayligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur musobaqa 2017-yildan buyon har yili muntazam o'tkazib kelinmoqda. Unda Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi faoli ishtirok etib, besh marotaba faxrli birinchi, uch marotaba ikkinchi o'rinni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Maksim BOCHKAREV,
"NKMK" AJ Tartibot va qo'riqlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i, jamoa murabbiyi.

■ Ma'naviyat

O'ZLIKNI TOPMOQ BAXTI

Insonning tabiatan qiziquvchanligi, uning ko'plab odamlar bilan muloqot qilishiga sabab bo'ladi. Yo'lda, sayohatda, ishda, xullas, hayot deb atalmish karvonning bekatlari qancha ko'p bo'lsa, muloqotlar ham shunchalik. Siz insonlar bilan muloqotda ulardan nimadir olasiz, nimalardir ulashasiz. Ularning aksariyatidan shirin xotiralar qoladi, hayratlar qoladi, havaslar qoladi...

ga soatlab tushuncha beraman va bundan xursand bo'laman, yengil tortaman. Mabodo tarix fani bo'yicha olimlar, arxeologlar kelib qolsa, ular bilan fikr almashib, ko'p narsalarni bilib olishga harakat qilaman. Ana shunday suhbatlar menga ruhiy kuch va shijoat beradi, - deydi Nargiza Achilbayeva.

Inson maqsadiga o'z kuchi va salohi-



Bugungi muloqotimiz qahramoni ham kamtar, kamsuqum, hayotiy muammo va masalalarga teran nazar bilan qaraydigan yurtodoshimiz Nargiza Achilbayeva. U Markaziy kon boshqarmasi O'quv markaziga qarashli "Qizilqum sahrosini o'zlashtirish tarixi" muzeyida uzoq yillardan buyon ishlab keladi.

Uning hayot yo'lida razm solarkansiz, o'z maqsadi sari intilish harakati insonda qanchalik kuchli bo'lsa, hayotda o'z o'rnini topish shunchalik samarali bo'lishining guvohi bo'lasiz. Nargiza opa Jomboy tumani ziyoli oilada tavallud topgan. U yoshligidanoq o'qishga mehr qo'ydi. Otasi Tursunmurod aka kitoblarni qadrdorchi inson bo'lgan. U ish bilan juda bandligiga qaramasdan farzandlar ta'limi va tarbiyasi uchun vaqt topar edi. Oilada to'ng'ich farzand bo'lganligi bois, ko'proq mas'uliyat Nargizaning zimmasida bo'lardi. Ro'zg'or ishlarida onasiga ko'maklashish, ukalariga qarash kabi yumushlar uning oilaparvar bo'lib tarbiyalanishida muhim o'rin tutadi. Oilada besh nafar farzand voyaga yetdi. Onasi Musallam aya tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli kasalxonada xamshira bo'lib ishlash barobarida Nargiza, Shuhrat, Eldor, E'zoz, Nafisalarni oq yuvib, oq taradi. Nargiza bolaligidanoq adabiyot va tarix fanlariga alohida mehr qo'yib ulg'aydi.

Maktabimizdagi kutubxonam uchun haqiqiy mo'jizalar olami edi. Yodimda, ilk marta 2-sinfda o'qiyotgan paytim 5-sinfda o'qiyotgan qo'shnimiz Sohiba opa bilan borganman. O'sha paytdagi hayratimni hech narsa bilan ta'riflab bo'lmaydi. O'shandan beri kitoblar mening eng yaqin sirdoshim, do'stingma aylangan. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarini yig'lab o'qiganman, - deya xotirlaydi Nargiza opa.

Tursunmurod aka va Musallam ayalar oilasida kamol topgan farzandlarning barchasi oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Nargiza opa 1994-yilda o'rta maktabni bitirib, bilim yurti kutubxonasida ishlay boshladi. 1996-yildan boshlab uning hayoti Zarafshon shahri bilan bog'landi. Ish faoliyatini Zarafshon shahri Axborot kutubxonasi markazida davom ettirdi. Birin-ketin farzandlari tug'ildi. Nargiza opa bir qancha muddat bolalar bog'chasida ham ishlashiga to'g'ri keldi. Yoshlikdagi bilimga chanqoqlik, izlanuvchanlik uni Angren davlat pedagogika instituti sari yetakladi. Bir tomondan bolalar tarbiyasi, oila tashvishlari-yu yuklarini, ikkinchi tomondan tahsil mashaqqatlarini sabr bilan ko'tarib, 2006-yilda oliy ma'lumotli mutaxassislikni egalladi.

Odamlar har doim jamoada mehnat qiladi va mehnat natijalari uning turmush tarzini o'zgartirib boradi. Inson jamiyatdan ayro yashay olmaydi. Ishlaydigan jamoangda ahillik bo'lsa, o'zaro hurmat bo'lsa, mehnat ko'tarinkiligi, hayotga quvonch bilan qarash ishtiyoqi ham baland bo'ladi. Ta'biyiki, inson qadrlanadigan joyda mehnat ko'tarinkiligi shavqi, hayotga zavq bilan qarash hissiyoti ham o'zgacha ruhdan bo'ladi. 2007-yilda Nargiza opa Markaziy

kon boshqarmasiga qarashli 27 -sonli bolalar bog'chasiga ishgah kirdi. Bu yerda ham o'zining mehnatsevarligi, ishgah mas'uliyat bilan yondashishi ortidan ko'plab hurmatiga sazovor bo'ldi.

Bundan o'n yil muqaddam u o'zining sevgan kasbi, tarix bilan bevosita chambarchas bog'liq soha, Zarafshon shahrida joylashgan "Qizilqum sahrosini o'zlashtirish tarixi" muzeyi mudirasi bo'lib ish boshladi. Shu paytdan boshlab muzey Nargiza Achilbayeva hayotining ajralmas qismiga aylandi. Sababi, inson o'z sevgan kasbi bilan mashg'ul bo'lsa, uning hayotiga mazmun bag'ishlanadi, ishidan, hayotidan qoniqish hissi bilan yashaydi.

-Har bir xalq o'z tarixiga nazar tashlab, urf-odatlarini, an'analarini hamda qadimiy yodgorliklarini o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Bu borada muzeylarning o'rnini beqiyos. Men muzeylarni o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'prikk qiyoslayman. Muzeyimizda "Qadimgi hayot", "Qizilqum tabiati", "NKMK sanoati", "Geologiya va mineralogiya", "O'lkamiz xalqlarining turmush tarzi va madaniyati", "Zarafshonning sportdagi yutuqi" mavzularidagi bo'limlar mavjud bo'lib, har bir bo'lim o'ziga xos alohida ish-sinoatlarni qamrab olgan. Tashrif buyuruvchilarga bularni tushuntirish esa bilim va mahorat talab etadi, deya fikrlari bilan o'rtoqlashadi qahramonimiz. Nargiza Achilbayeva ish faoliyatida davomida muzeyga tashrif buyurgan har bir odamga eksponatlar tarixini batafsil, erinmasdan tushuntiradi.

"Bu asori-atiqalarning har birining yurtimiz tarixini o'rganishda alohida ahamiyati bor. Muzeyga tashrif buyurgan inson boy taassurot olib, o'z dunyoqarashi, bilimini oshirsa, shuncha quvonaman". Bu, Nargiza opa o'z ishidan mamnunligi e'tirofi edi. Nargiza opani o'z ishingini mutaxassis desangiz, unga berilgan xolis baho bo'ladi.

- Muzeyga har xil odamlar kelishadi. Ayniqsa, maktab o'quvchilari yoki tarix bilan qiziqadiganlar tashrif buyurishsa, ular-

yati bilan erishgani yaxshi. Shundaygina u baxtiyorlik hissinu tuyadi. Hayot kurashdan iborat, kurashlar insonni toblaydi, unga kuch bag'ishlaydi. Nargiza opaning hayotiy falsafasi xuddi shunday. Muzeydagi ish faoliyati davomida muzey eksponatlarini boyitish maqsadida goh arxeolog olimlar, goh tarixchilar bilan, xullas qayerdagi, moziyaga oid ko'rgazma, tadbirlar bo'lsa? albatta qatnashadi. Ko'plab tarixiy qadamjolarga sayohat qilib, o'ziga tegishli manbalari ko'tarib bilimni boyitib borishdan charchamaydi. Muzeydagi har bir eksponatning tarixiy qiymatini bilgani holda ularni bekam-u ko'st saqlashga harakat qiladi.

Ayolga, avvalo, onalik baxti berilgan. Ayolga O'lohdan tomonidan shunday kuch berilganki, u bir kaftida ro'zg'or tashvishi, ikkinchi kaftida farzandlarni voyaga yetkazish mas'uliyatini ko'tarib yura oladi. Har ikkalasini ham mushtarak olib borishga shijoat topa oladi. Nargiza opaning to'ng'ich qizi Nilufar Toshkent tibbiyot akademiyasi magistranti, o'rtancha qizi Laylo Samarqand davlat chet tillar institutini bitirish arafasida, kenja qizi Mohinur esa Latviyadagi Stradnya nomli Riga tibbiyot universiteti talabasi. Hayotdagi va oiladagi yutuqlarga Nargiza opa kamtarona mehnati, bilimni va tirishqoqligi orqasidan erishdi. Har bir insonga qo'ldan kelguncha yaxshilik qilish uning odati. "Hatto tanimagan insoningizga ham yaxshilik qilib ketaverasiz-a, bunga sabab nima?", deb so'raganimizda, u kishi: -Bilmadim, tarbiya shekilli, ota-onam shunday tarbiyalashgan, hayotda har kimning o'z qoidasi bo'ladi, - deydi kamtarlik bilan.

Tanlagan yo'ldan ildam odimlayotgan, mehnati bilan o'z maqsadi sari dadil intilayotgan ayollarimizning munosib vakili bilan tanishishni istasangiz, Zarafshon shahriga keling. Nargiza opa bilan bir suhbat qursangiz, yana suhbatlashingiz kelaveradi. Uni esa albatta muzeydan topasiz.

Dildora KARIMOVA.

■ Dolzarb mavzu

O'lkamizda kuzning so'nggi oyida havo harorati pasayib, salqin kunlar boshlandi. Bunday pallada kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish muhim ahamiyatga ega. Sovuq kunlar boshlanishi bilan barcha xonadonlarda va obyektlarda isitish tizimlari ishga tushiriladi. Buning natijasida issiqlik ta'minoti obyektlari va uskunalarining yuqori quvvatda uzluksiz ishlashiga to'g'ri keladi. Agar mazkur tizimlarda biror muammo va kamchilik bo'lsa, bularning ortidan yana boshqa ko'plab muammolar, tashvishli holatlar yuzaga kelishi turgan gap. Ana shunday hollarning oldini olish maqsadida Markaziy kon boshqarmasida ham ishlar reja asosida olib borilmoqda.

KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK

- Hozirgi kunda davlatimiz rahbarining tegishli qarorlari hamda "NKMK" AJning 2024-yil 1-maydagi "NKMK" AJ ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlarini 2024-2025-yillar kuz-qish davrida foydalanishga tayyorlash to'g'risida"gi buyrug'i talabi ijrosini ta'minlash maqsadida boshqarmamizda 36 banddan iborat tashkiliy texnik tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Boshqarmamizga qarashli ishlab chiqarish obyektlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari belgilangan chora-tadbirlar asosida olib borilmoqda. "Bessopan", "Muruntov" va "Dovgiztov" sanoat maydonlarida joylashgan obyektlarida kuz-qish mavsumida issiqlik, elektr energiyasi, gaz, texnik va ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida qator ishlar bajarildi, - dedi MKB bosh energetik bo'limi yetakchi muhandisi Ilhom Muxtorov.

Markaziy kon boshqarmasining ishlab chiqarish obyektlarini 2024-2025-yillar kuz-qish mavsumida betalafot ishlashi uchun 430 metr uzunlikdagi issiqlik, 750 metr uzunlikdagi suv tarmoqlari va 2 300 kvadrat metr maydondagi binolarning tom qismi mukammal ta'mirlandi. Bundan tashqari 4 260 metr uzunlikdagi issiqlik, 9 645 metr uzunlikdagi suv, 7 700 metr uzunlikdagi gaz, 1 520 metr uzunlikdagi kanalizatsiya, 2395 metr uzunlikdagi elektr tarmoqlari, 7 dona transformator podstantsiyalari, 3 ta qozonxona, 39 ta suv isitish va bug' qozonlari, 47 ta gaz taqsimlash punktlari joriy ta'mirlanib, 430 metr uzunlikdagi issiqlik quvurlarida himoyalash ishlari olib borildi. Zarafshon va Uchquduq shaharlar hududlaridagi ishlab chiqarish obyektlari va aholi punktlarini suv bilan ta'minlash uchun "Amudaryo-Zarafshon" magistral suv quvuri hamda 9 ta suv ko'tarish nasos stansiyalarida ta'mirlash ishlari bajarilib, texnologik jarayonning bir maromda ishlashi tashkil etildi.

Shuningdek, boshqarmaning issiqlik manbai hisoblangan barcha qozonxonalar uchun texnik tuz, zarur kimyoviy reagentlar zaxira qilindi. Avariya-dispetcherlik xizmatlari kerakli avtotransport vositalari va asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

Kon boshqarmasi tomonidan "Amudaryo-Zarafshon" magistral suv quvurining birinchi, ikkinchi va uchinchi tarmoqlari va 9 ta suv ko'tarish nasos stansiyalari, "Zarafshon-Bessopan" va "Zarafshon-Uchquduq" texnik, ichimlik suvi magistral quvurlari, "Zarafshon-Dovgiztov" ichimlik suvi magistral quvuri, "Karakata" nasos stansiyasi va suv tarmoqlarida ham joriy ta'mirlash ishlari olib borilib, kuz-qish mavsumiga tayyorlandi. Barcha nasos stansiyalari bino va inshootlarining ta'mirlalab holatda bo'lgan tom qismlari yangidan ta'mirlandi, yer osti suv tarmog'ining ayrim joylari qo'shimcha ravishda tuproqlar bilan to'dirildi, Bu esa suvning muzlab qolish ehtimolining oldini oladi, - deya qo'shimcha qildi Ilhom Muxtorov.

Bugungi kunda ishlab chiqarish obyektlari va iste'molchilarni suv bilan uzluksiz ta'minlash uchun investitsion loyihalar asosida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, joriy yilda "Amudaryo-Zarafshon" magistral suv quvurining 4-nasos stansiyasida quvvati soatiga 2500 kubometr bo'lgan yana 2 dona SE-2500 markali nasoslar o'rnatildi. Suv quvurlarining 11,4 kilometr uzunligida qurilish-montaj ishlari davom etmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, kuz-qish mavsumida texnologik jarayonning uzluksiz ishlashi va mavsumni betalafot o'tkazish uchun Markaziy kon boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmoqda.

Aziza IRISOVA.

■ Tibbiyot

QON BOSIMIDAN XALQONA YO'LLAR BILAN DAVOLANISH

- Chuqur nafas olib, uni 10 soniya ushlab turish va ohista nafas chiqarish qon bosimining bosqichma-bosqich tushishiga yordam beradi. Qon bosimini shu kabi tabiiy yo'l bilan tushirish usullari talaygina. Ushbu usullar qon bosimini tushiruvchi bo'lib, doringiz tugab qolganda asqatadi.

Meva va sabzavotlar

*Bir dona banan yeyish qon bosimini me'yorlashtirishga yordam beradi.

300-400 gr.olma 5-6 mahal uzoq chaynab yeyilsa ham qon bosimi yaxshilanadi. Faqat ushbu "meva terapiya" ni bajarish mobaynida boshqa hech narsa yeyish kerak emas.

Bulg'or qalampir, kivi, karkade choyi ham qon bosimini tushirishda beminnat yordamchi hisoblanadi.

Shuningdek, ko'pgina gippertoniklarga anjirdan tayyorlangan qaynatma yordam beradi, tayyorlanishi: 200 millilitr suvga 2 osh qoshiq ezilgan anjir solinib, suv hammomida qaynatiladi. So'ng 2 marotaba dokadan o'tkazilib, tushlikdan 30 daqiqa avval yarim stakan ichiladi.

Piyoz ham qon bosimini tushiruvchi yaxshi vosita. Kechki uyqudan avval 1 bosh piyoz po'stidan ajratilib, 100 millilitr suvga solib qo'yiladi. Tayyor damlama eritilab nonushtadan oldin ichiladi.

Har bir xonadonda sarimsoqpiyozni topish mumkin. Uning yordamida qon bosimini tushirish oson, tayyorlanishi: 200 millilitr sut 2 bosh sarimsoqpiyoz bilan birga qaynatiladi. Sovigach, elakcha yordamida sizib olinadi va 50 millilitr miqdorda ichiladi. Shuningdek, ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichib turilsa, qon bosimini me'yorlashtirib turishga yordam beradi.

Fitoterapiya

2 osh qoshiq quritilgan qora smordina mevalari 1 stakan qaynagan suvga solinib, 10 daqiqa past olovda qaynatiladi.



di. Bir soat tindirilib, sizib olinadi. Qaynatma bir kunda 4 mahal ¼ stakan miqdorda ichiladi.

100 gramm uzum bir stakan suvga solinib, past olovda 10 daqiqa qaynatiladi. So'ng sovutilib, doka yordamida sizib olinadi. Tayyor qaynatma har kuni 2 mahal 1-2 osh qoshiq miqdorda qabul qilinadi.

Peshob haydovchi vositalardan birini qabul qilish ham foydali. Bunda organizmdan ortiqcha suyuqliq chiqib ketishi natijasida, qon-tomirlardagi bosim kamayadi. Masalan, jo'xori popugini damlab, kuniga 3 mahal ichish mumkin.

Sharbat terapiyasi

Anor qon bosimini tushiruvchi ajoyib vositadir. Kuniga yarim stakan anor sharbatiga yarim stakan qaynagan suv qo'shib ichilsa, qon bosimini tushirishga ko'mak beradi.

Eslatma: anor sharbatini suv bilan aralashtirmasdan ichish mumkin emas, chunki u oshqozon devorlari va tish emalini zararlashi mumkin.

1 osh qoshiq asalni 1 stakan mineral

suvda eritib, yarimta limon sharbati qo'shiladi. Ushbu aralashmani har kuni ertalab choy yoki qahva bilan birgalikda ichish tavsiya qilinadi.

2:1 miqdordagi lavlagi sharbati va asal aralashtirilib, 4 kun davomida ¼ stakan-dan 3 mahal ichiladi. Yaxshi natijaga erishish uchun ovqatdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bunda sharbatdan tashqari, faqatgina sut qo'shilgan ko'k choy ichish mumkin.

Dorivor giyohlar

Yalpizli choy ham bu borada foydali. Buning uchun quritilgan yoki barra yalpiz barglari qaynagan suvga solinib, 20 daqiqa damlab qo'yiladi va kun davomida ichiladi.

Bir stakan yog'siz qatiqqa 1 qoshiq dolchin (koritsa) solib, bir oy davomida iching. Dolchin kaliy, kalsiy, magniyga boy bo'lib organizmdagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va tomirlarda tromb paydo bo'lishining oldini oladi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

KONCHILAR HAYOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Sptamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Sitora ASANOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi. Buyurtma № 571. 2024-yil 30-oktabr 17:00 da chop etishga topshirildi.